Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320075

RAQAMLI TO'LOVLARNI BUGUNGI KUNDAGI O'RNI

SADULLAYEVA MARIFAT SHONAZAR QIZI
Ma'mun universteti'' NTM Iqtisodiyot fakulteti
IQT-24/5 guruh talabasi
MATKARIMOVA INTIZOR ATABAEVNA
"Ma'mun universiteti" Nodavlat ta'lim muassasasi,
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi,
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha (PhD) dotsent

Annotatsiya:Ushbu maqolada raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishi hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yoritilgan. Shuningdek, raqamli to'lov tizimlarining shaffoflikni oshirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va biznes jarayonlarini tezlashtirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli to'lov tizimi, naqd pulsiz hisob-kitoblar, iqtisodiy samaradorlik, elektron to'lov, moliyaviy texnologiyalar, shaffoflik, iqtisodiyot.

Raqamli to'lov tizmlari songgi yillarda butun dunyoda va ayniqsa , O'zbekistonda sezlarli o'zgarishlarga duch keldi . Internetda va texnalogiyaning rivojlanishi bilan turli hil to'lov usullari paydo bo'ldi, bu esa aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanishni sezilarli darajada osanlashtirdi.

Raqamli to'lov tizmlari dastlab 2000 yillarning boshlarida keng tarqaldi. 2007 yida PayPal xizmatlarni butun dunyo bo'ylab xalqaro moliyaviy tizim sifatida rasman kengaytirib onlayn xaridlar uchun xafsiz to'lavlarni amalga oshiradi.

2011 yida Google Wallet ishga tushrildi, bu faydalanuvchlarga o'z smartfonlar orqali to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi .Ushbu o'zgarishlar raqamli to'lov tizmlarini uchun yangi imkoniyatlar va tandentsiyalarga yo'l ochadi. 2011-2016 yillarda raqamli to'lovlarni amalga oshirishni sezilarli darajada soddalashtirlgan birinchi mahalliy to'lov tizmlari paydo bo'ldi. Bu tizmlar faydalanuvchlarga naqt pulsiz xaridorlarni amalga oshirish xizmatlari uchun onlayn to'lovlarni amalga oshirish va hattoki davlat to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.2020- yilda , pandemiya davrida raqamli to'lov tizmlarga talab ortadi, chunki ko'pchilik kartani vaqtida naqt puldan foydalanishni kamaytirshga majbur bo'ldilar.

2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Markazi bank raqamlari to'lov tizmlarni rivojlantirish strategasini ishlab chiqdi. Maskur strategiya doirasida mahalliy va xalqaro to'lov tizmlarni integratsiyalashuvga alohida etibor qaratildi.Ushbu integratsiya tufayli faydolanuvchilar Payme ,Click kabi to'lov tizmlarda foydalangan holda xalqaro miqyosda to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. QR kod texnalogiyasi O'zbekistonda raqamli to'lov tizmlarning muhim qismiga aylandi.2021-yilda boshlab QR kod yordamida to'lovlar soni sezilarli darajada oshdi. Ushbu usularning qulayligi va xafsizligi tufayli ko'plab kichik va o'rta biznes sub'ektlari savdo

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Published: 05.06.2026

Cite this article: Sadullayeva Marifat Shonazar qizi, Matkarimova Intizor Atabaevna (2026). Raqamli to'lovlarni bugungi kundagi o'rni. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320075

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

nuqtalarda QR kod orqali to‘lovlarni qabul qila boshladilar. Bu biznesning naqd pulga bo‘lmagan ehtiyojini kamaytirish va moliyaviy jarayonlarni tezlashtirishga yordam beradi.Raqamli to‘lov tizmlarning asosiy afzalliklaridan biri bu tezlik va qulayligidir. Odamlar uylaridan yoki ish joylaridan chiqmasdan to‘lovlarni amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, raqamli to‘lov tizmlari ham xafsizlik nuqtayi nazaridan juda ko‘p afzalliklarga ega. 2023-yilda o‘tkazilgan tadqotga ko‘ra, raqamli to‘lov tizmlari sun’iy intellektdan foydalangan holda firibgarlikni aniqlash texnologiyalarini joriy qilgan, bu esa faydalanuvchi ma’lumotlar xafsizligni sezilarli darajada yaxshilagan.

Raqamli to‘lov tizimlarning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini tahlil qilib o‘tsak. Raqamli davlat-o‘z-o‘zidan maqsad emas, bu davlat xizmatlarini ko‘rsatishni yaxshilash, odamlarning faolligini oshirish, shofofflik , jovobgarlig va inklyuzivlikni oshirish va oxir-oqibat butun jamiyat uchun hayotini yaxshilash vositasidir.[1]

Naqt pulsiz mablag’lar - mulkiy shakildan qat`iy nazar barcha turdagi xo‘jalik yurutuvchi subektlarni kredit muassaslarda xisob raqamlaridagi shuningdek plastik kartichkalar va hisob- kitob chek ko‘rinishdagi mablag`lardan iborat.[2]

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib boriyotgan bir davir raqamli to‘lov tizimlari muhim ahamiyat kasb etmoqda .Raqamli to‘lov tizimlari iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.Ular iqtisodiy jarayonlarni tezlashtiradi,shaffoflikni oshiradi va biznes muhitini yaxshlaydi140.

Naqt pulsiz hisob-kitob kengayishi iqtisodiy samaradorliokni oshirish molyaviy inklyuziyani kengaytirish va yashirin iqtisodiyot ulishini kamaytirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi . Soliq tushumlarni oshiradi,to‘lovlarni ochiq va nazorat qiladigan bo‘lishi davlat byudjetiga tushmlarni ko‘paytiradi141.

2019-yil 1-noyabrda O‘zbekiston Respublikasida To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida Qonun qabul qilindi [3] va mazkur qonun mamlakatda raqamli to‘lov tizimlarini rivojlantirishning huquqiy asosini yaratdi. Ushbu qonun 2020-yil 1-fevraldan kuchga kirib, to‘lov tizimlari faoliyatini tartibga solish, elektron to‘lov vositalarini keng joriy etish hamda moliyaviy operatsiyalar shaffofligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.2025-yil 10-dekabrda qabul qilingan raqamli to‘lovlarga oid normativ hujjat aslida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan PF–246 sonli farmon bo‘lib, u “Raqamli (naqd bo‘lmagan) to‘lovlarni rivojlantirish va qora bozor iqtisodiyotini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” deb nomlangan.Bu farmonga muvofiq nimalar belgilanganligini tahlil qilsak.

1. Majburiy naqd bo‘lmagan to‘lovlar joriy etiladi 2026-yil 1-aprel kunidan boshlab ayrim to‘lovlar faqat naqd bo‘lmagan (elektron) shaklda amalga oshiriladi:

140 https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan

141 https://www.oecd.org/en/countries/uzbekistan.html

- Davlat organlari xizmatlari uchun to‘lovlar;
- Elektr, gaz, ichimlik suvi kabi kommunal to‘lovlar;
- Aksiz soliqqa tortiladigan tovarlar (alkogol, tamaki) sotib olish;
- Yo‘l-transport uchun yoqilg‘i va elektr energiya xarid qilish;
- 25 000 000 so‘mdan ortiq narxdagi tovarlar va xizmatlar;
- 10 yildan yosh bo‘lgan avtomobillar yoki ko‘chmas mulk sotib olish.

2. QR kodlardan foydalanish majburiy bo‘ladi. 2026-yil 1-yanvardan barcha yuridik shaxslar uchun birlashtirilgan QR kod orqali elektron to‘lovlarni qabul qilish talab etiladi, va 1-iyuldan QR kodi ishlatmaslik savdo qoidalarini buzish deb hisoblanadi.
3. Farmon orqali quyidagilar maqsad qilingan:
-Qora bozor iqtisodiyotining umumiy yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2030-yilgacha 1,3 barobar kamaytirish;
-Savdo va xizmatlar sohasida naqd bo‘lmagan to‘lovlarning ulushini 75 %ga yetkazish;
-To‘lov shaffofligini oshirish va moliyaviy firibgarlik xavfini kamaytirish.
4. Amalga oshirish muddati
— 1 aprel 2026 – majburiy naqd bo‘lmagan to‘lovlar kuchga kiradi.
— 1 yanvar 2026 – QR kodlarni joriy etish boshlanadi.

Xulosa. Raqamli to‘lov tizimlari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar shaffofligini ta’minlash, moliyaviy oqimlarni nazorat qilish imkoniyatini kengaytiradi hamda soliq tushumlarining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada yashirin iqtisodiyot ulushi qisqarib, davlat byudjeti barqarorligi mustahkamlanadi. Shu bilan birga, ushbu tizimlar aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, moliyaviy inklyuziya darajasini oshiradi.Shuningdek, raqamli to‘lov infratuzilmasining rivojlanishi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, elektron tijoratni kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, ushbu jarayonlar bilan bir qatorda axborot xavfsizligi, kiberxavf-xatarlar va texnologik tengsizlik kabi muammolarni bartaraf etish zarurati ham yuzaga keladi.

Umuman olganda, raqamli to‘lov tizimlarini izchil rivojlantirish va ularni samarali boshqarish orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begalov B.A., Abdullayev M.K. — “Raqamli iqtisodiyot” -2025 yil
2.A.A.Omonov., T.M. Qoraliev — “Pul va banklar” -2024 yil
3.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.11.2019 yildagi To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida O‘RQ-578-son